

ANUSHTEGIN-XORAZMSHOHLAR DAVLATCHILIGI TARIXI

Rahmonqulova Ruxshona Alijan Qizi

Nizomiy nomidagi UzMPU

kechki bo'lim tarix fakulteti

401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Yakobjanov J.J

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XI–XIII asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgan Xorazmshohlar davlatining boshqaruv tizimi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada Anushteginlar sulolasining markazlashgan davlatni shakllantirish jarayoni, sulton hokimiyatining mustahkamlanishi hamda viloyatlar boshqaruvi, amaldorlar tizimi va ularning vazifalari yoritilgan. Qolaversa, Xorazmshohlar davlati kuch-qudratining oshishida sulton va markaziy hokimiyatning rolga alohida e'tibor qaratilib, ichki nizolar hamda mo'g'ullar bosqini arafasida yuzaga kelgan boshqaruv inqirozi sabablari ham ilmiy tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazmshohlar davlati, Anushteginlar sulolasi, davlat boshqaruvi, markazlashuv, amaldorlar tizimi, siyosiy tarix.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников рассматривается система государственного управления государства Хорезмшахов, достигшего высокого уровня политического развития в XI–XIII веках в Средней Азии. В исследовании анализируется процесс формирования централизованного государства династией Аноуштегинидов, укрепление власти султана, а также административное управление провинциями и структура чиновничества. В статье раскрывается роль сильной центральной власти в усилении государства и причины административного кризиса накануне монгольского нашествия, приведшего к его падению.*

Ключевые слова: *Государство Хорезмшахов, династия Аноуштегинидов, государственное управление, централизация власти, административная система, политическая история.*

Abstract: *This article examines the system of governance in the Khwarazmshahs State, which reached a high level of political development in the 11th–13th centuries in Central Asia. Based on historical sources, the study analyzes the formation of a centralized state under the Anushteginid dynasty, the strengthening of sultanic authority, and the administrative management of provinces together with the structure of the bureaucratic apparatus. The research also explores the role of strong centralized power in the rise of the state and the causes of the administrative crisis on the eve of the Mongol invasion, which ultimately led to its collapse.*

Keywords: *Khwarazmshah State, Anushteginid dynasty, state governance, centralization of power, administrative system, political history.*

Xorazmshohlar davlati XII asrning ikkinchi yarmi XIII asrning dastlabki choragi davomida Sharqning eng qudratli markazlashgan davlati sifatida bir qator davlatlarni o'z tarkibiga qo'shib olgan yirik saltanat darajasidagi davlat tizimini shakllantirgan edi. Davlatning tashkil topgan sanasi hamon munozarali hisoblanadi. XI asr boshlariga kelib Xorazm hududi dastlab G'aznaviylar, so'ngra Saljuqiylar davlatining tarkibiga kirgan. Mintaqada siyosiy kuchlar muvozanati o'zgarib, kuchli sotibolma (mamluk) harbiy zodagonlar saroy siyosatida faol rol o'ynay boshladi.³⁹ Ana shunday shaxslar orasida kelib chiqishi turkiy bo'lgan Anushtegin muhim o'rin egalladi. Anushtegin saljuqiy sulton Malikshoh saroyida tashtdor va hammomchilar boshlig'i lavozimada bo'lgan. Sulton hammomchilari mahkamasining sardori bo'lgan Anushtegin G'archoy Malikshoh saroyida yuksak martabaga erishgan. U rahbarlik qilgan mahkama zimmasiga Xorazmni boshqarish ham yuklangan. 1077-yilga kelib Malikshoh tomonidan Xorazmga noib etib tayinlandi. Shunday qilib, Xorazmshohlar davlati 1077-yilda anushtegin tomonidan asos solingan⁴⁰. Xorazmshohlar ya'ni Qutbiddin Muhammad, Otsiz, El-Arslon, Muhammad Xorazmshoh, Manguberdi kabilar davrida davlat birqancha yuksaladi.

Xorazmshohlar imperiyasi Fors atrofidagi hududlarda eng qudratli davlatga aylangan. Taxminlarga ko'ra, imperiya 3,6 million kvadrat kilometrdan 4,2 million kvadrat kilometrgacha bo'lgan maydonni egallagan. XII asr oxiri – XIII asr boshlariga kelib, Xorazmshohlar davlati musulmon Sharqining eng yirik va qudratli davlat birlashmasiga aylandi. Xorazmshohlar imperiyasi mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga bosqinidan oldingi so'nggi turk-fors davlati edi. Ushbu davlatning tez sur'atlarda qudratlanishi hamda musulmon Sharqining yetakchi imperiyasiga aylanishida boshqaruv tizimining mukammal tashkil etilgani alohida ahamiyat kasb etadi. Anushteginiylar sulolasi hukmronligi davrida markazlashgan davlat boshqaruvi asta-sekin shakllanib, harbiy zodagonlar, ma'muriy idoralar va diniy kuchlar o'rtasidagi muvozanat asosida olib borildi. Xorazmshohlar hukmdorlik mavqeini ilohiylashtirish orqali siyosiy hokimiyatni mustahkamladi, viloyat va mamlakatlar ustidan nazoratni kuchaytirdi, davlat xavfsizligini ta'minlagan kuchli qo'shin yaratdi. Ayniqsa Takash va Alovuddin Muhammad davrida boshqaruv tizimi eng yuqori darajaga yetib, jahon siyosiy maydonida Xorazmshohlar saltanatining nufuzi keskin oshdi. Shu bois bu davr boshqaruv tizimini o'rganish — nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki o'sha zamonning siyosiy tafakkurini ham chuqur anglash imkonini beradi.

Xorazmshohlar davlati boshqaruvining markazi — sultonlik hokimiyati bo'lib, barcha siyosiy va harbiy qarorlar bevosita Xorazmshoh tomonidan qabul qilingan. Hukmdor «Sulton», «Xorazmshoh», ba'zan esa «Yagona saltanat egasi» degan unvonlar bilan davlat boshlig'i sifatida tan olingan. Uning hokimiyati nasliy asosda meros bo'lib o'tgan bo'lsa-da,

³⁹ .O.Masharipov. Xorazmnoma. Toshkent: 2006. (Qisqa adabiyotlar ro'yxatida paydo bo'lgan)

⁴⁰ Ziyoy Bunyodov. Anushteginiy Xorazmshohlar davlati (1097-1231). Toshkent:

taxt uchun ichki kurashlar tez-tez yuz berib turgan. Xorazmshoh o'z atrofida davlat ishlarini yurituvchi saroy byurokratiyasini shakllantirgan. Markaziy boshqaruv apparati quyidagi eng muhim lavozimlar orqali faoliyat yuritgan. Anushtesiniylar davrida davlat boshkaruvi an'anviy boshqaruv tizimiga asosangan holda ikki tizimdan, Devon va Dargoh tashkil topgan. Dargohda xorazmshohlarning vazifalarini bajaruvchi bir necha lavozimlar mavjud bo'lgan. Devonlar faoliyati 5ta devondan iborat bo'lib, bularga qo'shimcha yana bir devon tashkil etilgan bo'lib, uning nomi devoni xos deb yuritilgan, bu maxsus devon bulib, hukmdor sulolaga sultoniga xizmat qiluvchi mamluklarga maosh berish vazifalari bilan shug'ullangan. Xorazmshohlarning markaziy davlat boshqaruvi "al-majlis ul-oliy al-faxri at-toj" (oliy va faxrli davlat toji) deb nomlangan⁴¹. Bu hokimiyatning egasi xorazmshohning o'zi bo'lsada, unga vazir (vaziri kalon, sadr, dastur, hojayi buzurg) boshchilik qilgan va bir vaqtning o'zida u sultonning maslahatchisi vazifasini ham bajargan. Vazirning bir qancha vazifalari bo'lib: asxob ad-davovin, ya'ni devon amaldorlarining boshlig'i, soliq va xazinaning nazorat, mansabdorlarni vazifalariga tayinlash yoki ozod etish, qo'shin yuborish va bosh qo'mondonlik qilish, davlat amaldorlariga nafaqa (arzaq) belgilash va ularning kundalik hayoti uchun zaruriy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va anjomlar bilan ta'minlash, sultonni boshga davlatlarning elchilariga rasmiy ravishda tanishtirish, hukmdorga muntazam xamrohlik qilish kabilar kirgan. Xorazmshohlar davlati boshqaruv ishlarida quyidagi mansab va lavozim egalari faoliyat ko'rsatganlar: Hojib ul-kabir (hojib ul-xos) - sultonning kundalik faoliyati bilan bog'liq ishlarning nazorati va sultonning doimiy hamrohi, sultonning eng zaruriy va shoshilinch topshiriglarini bajargan, vazirlik devonidagi xazina kirim-chiqimlari va boshga sohalarda yuritiladigan hisobot va qaydnoma daftarlarini nazorat qilgan, miroxur (amiri oxur) - saroyga (sultonga) qarashli otxona va otlar uchun mas'ul, amiri shikor - ov uyushtirish ishlari (marosimlari) va aslahalar uchun mas'ul, tashtdor - sultonning o'ziga eng yaqin tutuvchi va ishonchli mansabdorlaridan biri bo'lib, asosiy vazifasi sultonning yuvinish (tahorat) amallari uchun mas'ul bo'lgan, tashtdorning mavqei boshqa mansablarga qaraganda ancha yuqori mansab hisblangan va zaruriy hollarda ular viloyatlar hokimlari, harbiy qo'mondonlar kabi mansablarga ham tayinlanganlar, sharobdor - amirlardan tayinlangan bo'lib, ular turli marosimlar va ziyofatlar uchun tortiladigan sharoblar uchun mas'ul bo'lgan va Saroy sharobxonasining ta'minotini amalga oshirganlar, davotdor - sulton huzurida kotiblik vazifasini bajargan. Xorazmshohlarda vazlarga sadr, dastur, xo'jayi buzrukkabi unvonlar berilgan.⁴² Vazir lavozimidagi shaxslar siyohdoni va sallasi bilan ajralib turgan. Xorazmshohlar davlati siyosiy tuzumida islom dini markaziy o'rin tutgan bo'lib, sulola hukmronligining qonuniyligini mustahkamlashda asosiy mafkuraviy kuch sifatida xizmat qilgan. Anushteginiylar o'zlarini sunniy islom himoyachilari deb e'lon qilganlar va shu orqali xalifa hamda musulmon olamida katta e'tibor qozonganlar. Davlat boshqaruvi jarayonida

⁴¹ Iso Jabborov. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent. 2016.

⁴² O. Masharipov. Xorazmnoma. Toshkent: 2006. (Qisqa adabiyotlar ro'yxatida paydo bo'lgan)

shariat qoidalariga amal qilinishi va diniy ulamolarga ko'rsatilgan hurmat siyosiy barqarorlikning muhim omillaridan biri bo'lgan. Xorazmshohlar harbiy kuchi murakkab va o'z davri uchun juda rivojlangan tuzilishga ega bo'lgan. Saltanatning keskin kengayishi, turli xalqlar yashagan hududlar qo'shib olinishi qo'shin tarkibining etnik va tashkiliy jihatdan boyib borishiga olib kelgan. Qo'shin asosan otliq lashkarga tayangan bo'lib, sharqiy musulmon dunyosidagi eng jangovar kuchlardan biri sifatida tanilgan. Qipchoq otliq qo'shini xorazmshohlar qo'shinining enhtez va asosiy qismini tashkil etgan. Ular ko'pincha hukmdorning shaxsiy gvardiyasi sifatida xizmat qilgan. Bundan tashqari g'ulomlar ya'ni mamluk jangchilar ham mavjud bo'lib ular bolalikdan maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilgan sodiq jangchilar hisoblangan. Ko'pincha sarkarda va amir darajasiga ko'tarilgan, anushteginiylarning o'zi ham aslida mamluk kelib chiqishli bo'lgan. Mahalliy lashkarlar esa hududiy noiblar boshqaruvidagi qo'shinlar bo'lib: Xuroson, Movarounnahr, Eron va Iroq mintaqalaridan safarbar etilgan, muayyan janglarda asosiy qo'mondonlik vazifalarini bajargan. Yollanma qo'shinlar - asosan qoraxoniylar, turkman va boshqa ko'chmanchi qabila jangchilari, zarur paytda jangga chaqirilgan ko'p hollarda asirlarni ham qo'shin tarkibiga qo'shishgan. Devoni Arz — Harbiy ta'minot markazi bo'lib, qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi maxsus idora: askarlar soni va ro'yxatini yuritgan, qurol-aslaha, kiyim-kechak va otlar nazoratini amalga oshirgan, yollanma askarlar va g'ulomlar uchun oylik ajratgan. Bu tizim harbiy kuchning intizomli va doimiy bo'lishini ta'minlagan. Otliq qo'shin asosiy kuch bo'lganligi sabab har bir jangchi bir necha otga ega bo'lishi shart edi. Otlar maxsus yaylovlar va davlat karvonsaroylarida parvarish qilingan, zaxira yugan, zirh, kamon, nayza va qalqon bilan qurollantirilgan. Qipchoq jangchilarining yuqori manevr salohiyati aynan mustahkam ta'minot natijasi edi. Xorazmshohlar davlati qo'shinining muvaffaqiyati — uning puxta ta'minlangan logistik tizimi bilan bevosita bog'liq. Kuchli iqtisodiy asos bo'lmasa, qudratli qo'shin ham uzoq jang maydonida o'z salohiyatini saqlay olmas edi.⁴³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Ziyo Bunyodov. Anushteginiy Xorazmshohlar davlati (1097-1231). Toshkent:

Iso Jabborov. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent. 2016.

O. Masharipov. Xorazmnoma. Toshkent: 2006. (Qisqa adabiyotlar ro'yxatida paydo bo'lgan)

Maqola: Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi kontekstida. ("Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi" — O'zbek tilida)

Maqola: Xorazmshohlar davlatining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli. — o'zbekcha PDF formatda.

Darslik/referat: Xorazmshohlar davlati — siyosiy tarixi va davlat boshqaruvi haqida o'zbekcha material.

⁴³ Maqola: Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi kontekstida. ("Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi" — O'zbek tilida)